

YOZUV DARSLARIDA AQLI ZAIF O'QUVCHILARNING YOZUV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

**Turaqulova Shaxnoza Daminovna, 2-bosqich magistranti
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Annatatsiya: O'zbekiston Respublikasining nogironlarga nisbatan olib boriladigan davlat siyosati “O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyalaniши to'g'risidagi” qonun 1991-yili bilan belgilandi. Bu qonun aholining mazkur guruhiga boshqa fuqorolar bilan teng asosda to'laqonli hayot kechirish, jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek, o'zining fuqorolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlar tizimini ko'zda tutadi maqolada shu va boshqa ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Yozuv, diktatnt, imkoniyati cheklanganlik, jismoniy – ruhiy nuqson, oila va jamiyat, bola, maktab, konstitutsiya, fuqarollik xuquqi.

Yurtimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq yosh avlodni tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Hech kimdan kam bo'limgan, yuksak aql – zakovatli, sog'lom va ma'naberkamol farzandlarni kamol toptirish eng ustivor vazifalardan biriga aylandi. Bunday ulkan vazifa bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 23 – moddasida “Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, Shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etiladi.”¹ deyilishining o'zi ham yuqoridagilarning isbotidir. “Yozuv malakasi” tushunchasi, xuddi lingvistika bo'limlari singari, yozuv malakalarini shakllantirishning mazmunini bildiradi hamda, o'zida yozma va bosma harf belgisini yozuvda ifodalashni qamrab oladi. Mutaxassislar va amaliyotchilarning fikricha o'quvchilarda yozuv malakalarini shakllantirish uzoq va murakkab jarayonda vujudga keladi.

G.N.Raxmakova, Ye.I.Skiotis, R.D.Trigerning fikricha, aqli zaif o'quvchilarning sensor jarayonlarini past darajada ekanligi harf shaklining ko'rav – harakat obrazi ko'nikmasining shakllanmasligini keltirib chiqaradi, bu esa yozuv jarayonida qiyinchilik tug'diradi, masalan, o'quvchi harflarni bir-biriga bog'lab yoza olmaydi.

O'quvchilar bilan o'tkazilgan yozuv malakalarini shakllanganlik darajasini tashhislash metodikalari qo'yidagi natijalarni beradi.

“Darslikda berilgan matnni ko'chirib yozish jarayonida yozuv malakalakasini o'ziga xosligini aniqlash” metodikasi natijalari 1- jadvalda berildi.

Aqli zaif bolalarning darslikda berilgan matnni ko'chirib yozishidagi yozuv malakalarini shakllanganlik darajasini holati (1-jadval).

Tadqiqod qatnashuvchilari	Yozuv malakalarini shakllanganlik darajasini matnni ko‘chirib yozishidagi holati.					
	Yaxshi daraja.		Qoniqarli daraja.		Qoniqarsiz past daraja.	
	soni	foiz	soni	Foiz	soni	Foiz
Kichik maktab yoshidagi aqli zaif o‘quvchilar (8-9yosh)	0	0	4	40%	6	60%

Jadvalda ko‘rsatilgan natijalar shuni ta’kidlaydiki, 2-sinfda o‘qiydigan aqli zaif o‘quvchilar darslikda berilgan matnni ko‘chirib yozish orqali yozuv malakalarini shakllanganligining yuqori va o‘rtaligida kuzatilmadi.

Yozuv malakalarini shakllanganligining past darajasi to‘rtta o‘quvchida aniqlandi, bu hol 40% ni tashkil qiladi. Bu o‘quvchilar darslikdan matnni ko‘chirib yozishda turli xil grafik xatolarga yo‘l qo‘ydi va yozuv buzilishlari ahamiyatli miqdorda aniqlandi, yo‘l qo‘ygan xatolarni o‘quvchilar qisman mustaqil to‘g‘riladi, ushbu to‘rt nafar o‘quvchining faoliyat tempi past darajada ekanligi va ko‘rvuva nazoratining pastligi aniqlandi. O‘quvchilar harf elementlarining fazoviy joylashuvida farqlanuvchi, hamda ko‘rinishida bir elementi bilan farqlanuvchi harflarni adashtirib yozish holatlari kuzatildi.

Yozuv malakalarini shakllanganlik darajasining eng past darajasini 6 ta o‘quvchi (60%) ko‘rsatgan bo‘lib, o‘quvchilarning yozma ishlarida e’tiborga molik darajada grafik xatolar va yozuv buzilishlari aniqlandi, yo‘l qo‘ygan xatolarni o‘quvchilar to‘g‘rilashga hatto harakat ham qilishmadidi. Ushbu olti nafar o‘quvchining faoliyat tempi va ko‘rvuva nazoratining juda past darajada ekanligi aniqlandi. Berilgan vazifani bajarish jarayonida o‘quvchilar imlo xatolariga yo‘l qo‘ydi va harflarni yozish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga keldi (o‘xshash harflarni almashtirish, harf shaklini o‘zgartirib qo‘yish kabi holatlar va hakazo).

Eksperimental guruhda “Darslikda berilgan matnni ko‘chirib yozish jarayonida yozuv malakalakasini o‘ziga xosligini aniqlash” metodikasi natijalari 2- jadvalda berildi.

2–jadval.

Aqli zaif bolalarning korrektsion ishlardan so‘ng darslikda berilgan matnni ko‘chirib yozishidagi yozuv malakalarini shakllanganlik darajasini holati.

Tadqiqod qatnashuvchilari.	Yozuv malakalarini shakllanganlik darajasini matnni ko‘chirib yozishidagi holati.					
	Yaxshi daraja.		Qoniqarli daraja.		Qoniqarsiz daraja.	
	soni	foiz	soni	foiz	soni	foiz
Kichik maktab yoshidagi aqli zaif o‘quvchilar (8-9yosh)	2	20%	3%	30%	5	50%

2-jadval tahlili Shuni ko'rsatadiki, ta'limiya tajribadan so'ng 2-sinf aqli zaif o'quvchilarning yozuv malakalarini shakllanganlik darajasi darslikdan matnni ko'chirib yozish jarayonida yuqori darajadagi(baholov mezoni) rivojlanish aniqlanmadi.

Ta'limiya eksperimentimiz natijasidan ko'rinish turibdiki, o'quvchilarning yozuv jarayonida ba'zi grafik va imlo xatolariga yo'l qo'ydi, yo'l qo'ygan xatolarni o'zлari mustaqil to'g'rilay oldi, ayrimlari qisman mustaqil to'g'riladi, ularda ko'rvu nazoratining pastligi aniqlandi. O'quvchilarda harf elementlarining fazoviy joylashuvida farqlanuvchi, hamda ko'rinishida bir elementi bilan farqlanuvchi harflarni adashtirib yozish holatlari kuzatildi

Eksperimentimizning tahlili Shuni ko'rsatadiki, kichik mакtab yoshidagi aqli zaif o'quvchilarda yozuv malakalarini shakllantirish jarayonida korreksion rivojlantiruvchi ishlar amalga oshirilsa yaxshi natijalar ko'rsatadi. Korreksion-rivojlantiruvchi ishlar qo'yidagilarga asoslangan:

- Kichik mакtab yoshidagi aqli zaif o'quvchilarning imloviy xatolarni va individual qiyinchiliklarini o'rgansa;
- Korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar majmuasi maxsus tashkil qilinsa. Bu ishlar doimiy xatolarni yo'qotishga va o'quvchilarni grafomotor malakalarini maqsadli o'rgatishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.12. 2017 yildagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-son farmoni (<https://lex.uz/docs/3436192>).
2. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 30 iyun' 2017 yildagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5099-son farmoni (O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami 27-son, 607-modda, <https://lex.uz/docs/3249651>).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldaggi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatiri oshirishda iqtisodiyot soha va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (<https://lex.uz/docs/3286194>).
4. Akramova X.S. Aqli zaif 4-5-sinf o'quvchilarida mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda kompyuter dasturidan foydalanish texnologiyasi: Avtoref. diss. ped. fan. dok (PhD)... - T.: TDPU, 2020. — 24 b.
5. Amirsaidova SH. Maxsus pedagogika taraqqiyotida SHarq mutafakkirlari g'oyalarining o'rni. Ped.fan.nomz. diss. avtoref. -T.: 2006. -21 b.
6. Axmedova Z. Umumta'lim o'quvchilarida disgrafiyanı bartaraf etishda logopedik ish tizimi. Ped.fan.nomz. diss. avtoref. -T.: 2009. -20 b.
7. Muzaffarova X.N. Bolalarda nutq buzilishlari va ularga korreksion yondoshish usullari// J. Tafakkur ziyosi — 2020. — №1. — В. 153-155.
8. Муминова Л.Р. Теоретические основы коррекционно педагогической работы по преодолению речевого недоразвития у детей дошкольного возраста: Автореф. дисс... док. пед. наук. – Т.: ТГПУ, 1992. – 46 с.